THE ROLE OF POLITICAL CULTURE IN SOCIAL LIFE AND ITS SIGNIFICANCE IN COMBATING CORRUPTION

РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ

SIYOSIY MADANIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDAGI AHAMIYATI

ARABOV Bakhtiyor Isomiddinovich,
ORIENTAL UNIVERSITY,
First Vice-Rector of Oriental University for Youth Affairs and Spiritual Educational Work
bakshtiyoarabov5@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2025/3/9

Annotation. *At present, corruption has become a global problem that poses a threat not only to individual states but also to the sustainable development of the international community. Throughout every stage of social progress, under various socio-economic and political systems, corruption has manifested itself in different forms. Unfortunately, this phenomenon is characteristic of all countries and continues to be observed today both in developed and developing nations.*

Indeed, corruption is a serious problem for all states, as it slows down economic development, disrupts the mechanisms of the market economy, undermines the principles of social justice, and erodes the foundations of democracy. No country has been entirely free from this scourge; however, some have managed to significantly reduce the level of corruption. In this process, the political culture of society plays a crucial role.

The political culture of a society encompasses its attitude toward the political system, its acceptance of social and political norms, the various forms of political participation, and its response to both positive and negative manifestations of political activity. In this regard, a high level of political culture ensures a society's negative stance toward corruption, its active engagement in anti-corruption efforts, and its commitment to transparency and openness.

In the modern era, effective anti-corruption efforts require not only the improvement of legal mechanisms but also the enhancement of the society's political consciousness and culture. This is because in a society with a high level of political awareness and culture, every citizen perceives themselves as an active participant in state and public affairs, demands transparency in the functioning of government institutions, and demonstrates zero tolerance toward corruption.

The concept of political culture, its essence, its role in social life, and particularly its significance in combating corruption are analyzed in this study. Political culture is not merely a set of political knowledge and views; it also reflects a citizen's attitude toward political activity and state governance, as well as their sense of responsibility and level of trust in government institutions. In the context of globalization and rapidly changing political processes, a high level of political culture serves as one of the key factors ensuring stable and constructive relations between the state and society.

The article emphasizes that in societies where corruption is deeply rooted, political apathy and the low level of citizens' legal and political awareness create a fertile ground for this phenomenon to persist. Therefore, I argue that enhancing political culture plays a crucial role in combating corruption by fostering an uncompromising attitude toward it among citizens, promoting a sense of justice, and developing a culture of active participation in public affairs.

The article analyzes the role of ongoing political and legal reforms in Uzbekistan in shaping civil society and ensuring the transparency and accountability of state institutions. It argues that in the fight against corruption, achieving sustainable and effective results requires not only punitive measures but also the elevation of social consciousness—particularly through the development of political culture.

Keywords: *corruption, official power, official, civil servant, ethics, bribery, privilege, interest, purchase.*

Аннотация. *В настоящее время коррупция стала глобальной проблемой, пороком, угрожающим устойчивому развитию не только отдельных стран, но и мирового сообщества. Коррупция проявлялась в различных формах на каждом этапе общественного развития, в различных социально-экономических и политических системах. К сожалению, это явление характерно для всех стран, и сегодня встречается как в развитых, так и в развивающихся странах.*

Действительно, коррупция является серьёзной проблемой для всех стран, она замедляет экономическое развитие, выводит из строя механизмы рыночной экономики, нарушает принципы социальной справедливости и подрывает основы демократии. Ни одна страна не избавилась полностью от этого порока, но некоторым удалось добиться значительного снижения уровня коррупции. В этом процессе, безусловно, важную роль играет политическая культура общества.

Политическая культура общества включает в себя отношение общества к политической системе, принятие её норм, различных форм политической деятельности, а также отношение к позитивным и негативным проявлениям политической активности. В этой связи высокий уровень политической культуры обеспечивает негативное отношение общества к коррупции, активное участие в борьбе с ней, стремление к прозрачности и открытости.

Сегодня эффективная борьба с коррупцией требует не только совершенствования правовых механизмов, но и повышения политического сознания и культуры общества. Ведь в обществе с высоким уровнем политического сознания и культуры каждый гражданин ощущает себя активным участником дел государства и общества,

требует прозрачности деятельности государственных органов и категорически не допускает коррупции.

Анализируется сущность понятия политической культуры, ее роль в общественной жизни, а также особенно ее значение в борьбе с коррупцией. Политическая культура – это не только совокупность политических знаний и взглядов, но и отношение гражданина к политической деятельности, государственному управлению, чувство ответственности за них и уровень доверия к ним. В современных условиях глобализации и стремительных политических процессов высокий уровень политической культуры является одним из важных факторов, обеспечивающих стабильные, здоровые отношения между государством и обществом. В статье подчёркивается, что в обществах, где коррупция глубоко укоренилась, политическая апатия, низкая правовая и политическая грамотность граждан создают основу для возникновения этого порока. Поэтому мы утверждаем, что повышение политической культуры – формирование у граждан непримиримого отношения к коррупции, развитие культуры стремления к справедливости и активного участия в государственных делах – имеет большое значение в борьбе с этим пороком.

В статье анализируется роль политико-правовых реформ, проведённых на основе опыта Узбекистана, в формировании гражданского общества и обеспечении открытости и подотчётности государственных органов. Утверждается, что в борьбе с коррупцией достичь устойчивых и эффективных результатов можно не только карательным подходом, но и повышением общественной осведомлённости, в частности политической культуры.

Ключевые слова: *коррупция, служебная власть, должностное лицо, государственный служащий, этика, взяточничество, привилегия, процент, покупка.*

Annotatsiya*. Hozirgi kunda korrupsiya global muammo sifatida nafaqat ayrim davlatlar, balki jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishiga tahdid solayotgan illatga aylanib ulgurdi. Korrupsiya jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida, turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlarda turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib kelgan. Afsuski, bu hodisa barcha davlatlarga xos bo‘lib, bugungi kunda ham rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham uchramoqda.*

Darhaqiqat, korrupsiya barcha davlatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi, u iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ishdan chiqaradi, ijtimoiy adolat tamoyillarini buzadi va demokratiya asoslarini yemiradi. Hech bir davlat ushbu illatdan butunlay xalos bo‘lmagan, biroq ba’zi davlatlar korrupsiya darajasini sezilarli darajada pasaytirishga erishganlar. Bu jarayonda albatta, jamiyat siyosiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat siyosiy madaniyati – bu jamiyatning siyosiy tizimga bo‘lgan munosabati, uning me’yorlarini qabul qilishi, siyosiy faollikning turli shakllari, siyosiy faoliyatning ijobiy va salbiy ko‘rinishlariga munosabatini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, siyosiy madaniyatning yuksak darajasi jamiyatning korrupsiyaga bo‘lgan salbiy munosabati, korrupsiyaga qarshi kurashdagi faol ishtiroki, shaffoflik va ochiqlikka bo‘lgan intilishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish faqat huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishnigina emas, balki jamiyatning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni ham talab etadi. Chunki siyosiy ong va madaniyat yuksak bo‘lgan jamiyatda har bir fuqaro o‘zini davlat va jamiyat ishlarining faol ishtirokchisi deb his etadi, davlat organlari faoliyatining shaffofligini talab qiladi va korrupsiyaga mutlaqo yo‘l qo‘ymaydi.

Siyosiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Siyosiy madaniyat – bu nafaqat siyosiy bilim va qarashlar yig‘indisi, balki fuqaroning siyosiy faoliyatga, davlat boshqaruviga bo‘lgan munosabati, unga nisbatan mas’uliyat hissi va ishonch darajasini ifodalaydi. Bugungi globallashuv va tezkor siyosiy jarayonlar sharoitida siyosiy madaniyat darajasining yuksak bo‘lishi – davlat va jamiyat o‘rtasida barqaror, sog‘lom aloqalarni ta’minlovchi muhim omillardan biridir.

Maqolada korrupsiyaning chuqur ildiz otgan jamiyatlarda siyosiy befarqlik, fuqarolarning huquqiy va siyosiy ongining pastligi ushbu illatning ildiz otishiga zamin yaratishini ta’kidlayman. Shu bois, men siyosiy madaniyatni oshirish – fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz qarashni shakllantirish, adolatga intilish va davlat ishlarida faol ishtirok etish madaniyatini rivojlantirish orqali bu illatga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Maqolada O‘zbekiston tajribasi asosida olib borilayotgan siyosiy va huquqiy islohotlarning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi, davlat organlari ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazoga asoslangan yondashuv emas, balki ijtimoiy ongni, xususan, siyosiy madaniyatni yuksaltirish orqali barqaror va samarali natijalarga erishish mumkinligi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *korrupsiyaviylik, mansab vakolati, mansabdor shaxs, davlat xizmatchisi, axloq me’yorlari, poraxo‘rlik, imtiyoz, manfaat, sotib olish.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri – o‘sha jamiyatdagi fuqarolar siyosiy madaniyatining yuksakligi bilan belgilanadi. Siyosiy madaniyat nafaqat fuqarolarning huquqiy ongi va siyosiy bilimdonligi darajasini belgilaydi, balki mamlakatda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borishning muhim shartlaridan birini ham tashkil etadi. Siyosiy madaniyat jamiyat hayotida insonlar ongining o‘ziga xos qatlami bo‘lib, ularning davlatga, hokimiyatga, siyosiy institutlarga munosabatini, siyosiy ijtimoiylashuv darajasini namoyon etadi. Hozirgi kunda kasbidan qat’i nazar har bir inson uchun siyosiy bilimlar va siyosiy madaniyat zarur hisoblanadi, chunki u jamiyatda yashar

ekan, muqarrar ravishda boshqa insonlar hamda davlat bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi.

Korrupsiya fenomeni insoniyat tarixining turli davrlarida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lib kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa hisoblanadi. Uning ta’sir doirasi, namoyon bo‘lish shakllari va mexanizmlari zamonaviy jamiyatda yanada murakkablashib, global xarakter kasb etmoqda. Bugungi kunda korrupsiya nafaqat davlat boshqaruvi sohasidagi muammo, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyodagi korrupsiya va uning mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri masalasi hozirgi kunda o‘rganilayotgan, ammo hali to‘liq va mukammal tahlil qilinmagan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda. Korrupsiya darajasini kamaytirish va uni bartaraf etish mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va mintaqa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy islohotlari bu muammoni hal qilishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Mintaqa davlatlariga xos bo‘lgan korrupsiyalashgan sohalar, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolar yuzasidan yurtimizdagi olim va tadqiqotchilar T.Matibayev (Matibayev T., 2023:63-69), L.Tursunov (Tursunov, 2021:25), X.Umarov (Umarov, 2007:145-187), A.Idinov (Idinov, 2011:100-177), S.Zolotareva va I.Mamonova (Zolotareva-Mamonova, 2020:132-137), S.Komkova (Komkova, 2018:95-96), A.Balega (Balega, 2020:82-92), G.Iskakova (Iskakova, 2014:8-51), E.Biyatov (Biyatov, 2020:1-3), A.Tursunov (Tursunov, 2021:253-264), B.Bekmurodov (Bekmuratov, 2021:30-32), Y.Isomiddinov (Isomiddinov, 2021:3-25) hamda rossiyalik olimlari S.Mazurin (Mazurin, 2013:41), A.Chelpachenko (Chalpachenko, 2020:25-87), A.Xitaxanov (Xitaxanov, 2023:3) va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi. Tadqiqotchi olimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyodagi korrupsion holatlar mintaqaga xos bo‘lgan vaziyatlar natijasida shakllanib kelmoqda. Bunga mintaqa davlatlarining geografik joylashuvi, iqtisodiyotda agrar sohaning ustuvorligi, avtoritar boshqaruvga intilish hamda nepotizm turtki beradi. Bu esa davlatning ijtimoiy sohalariga va iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ommaviy siyosiy savodxonlik fuqarolar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u zo‘ravonlikka, o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymaydi. Kuchli fuqarolik jamiyati qurilishida siyosiy madaniyat shunday asosni yaratadiki, unda korrupsiya kabi illatlarga qarshi turishning ijtimoiy immuniteti shakllanadi. Fuqarolarining ongida demokratik qadriyatlar, an’analar chuqur ildiz otgan davlatlarda korrupsiya hodisalariga nisbatan nafrat va murosasizlik kayfiyati kuzatiladi. To‘g‘ri, demokratik davlatda ham har bir shaxs siyosiy qarorlar qabul qilinishiga real ta’sir ko‘rsata olmaydi, lekin davlat siyosatida xalq manfaatlarining hisobga olinishi, elitalarning bilimdonligi va mas’uliyati shaxsning ongli tanloviga, uning siyosiy faolligiga bevosita bog‘liqdir.

Korrupsiya jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, og‘ir jinoyat turi jinoyat hisoblanadi. Korrupsiya muammosi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy muammodir. Shuning uchun ham unga nisbatan kompleks yondashib yani siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy, psixologik choralarni qo‘llash orqali kurashish samarali hisoblanadi. Shunda korrupsiya darajasini pasaytirishda natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ko‘pgina davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurash yo‘llaridan biri avvalo uni ilmiy tadqiq qilishdir. Ana shularni inobatga olib, Markaziy Osiyo davlatlarida korrupsiyaning mintaqaga xos bo‘lgan xususiyati, shakllari hamda mintaqa xalqlarining mentaliteti, muammolari, siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatidan kelib chiqib uni bartaraf etishga doir yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

METOD

Korrupsiya jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, og‘ir jinoyat turi jinoyat hisoblanadi. Korrupsiya muammosi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy muammodir. Shuning uchun ham unga nisbatan kompleks yondashib yani siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy, psixologik choralarni qo‘llash orqali kurashish samarali hisoblanadi. Shunda korrupsiya darajasini pasaytirishda natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ko‘pgina davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurash yo‘llaridan biri avvalo uni ilmiy tadqiq qilishdir. Ana shularni inobatga olib, Markaziy Osiyo davlatlarida korrupsiyaning mintaqaga xos bo‘lgan xususiyati, shakllari hamda mintaqa xalqlarining mentaliteti, muammolari, siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatidan kelib chiqib uni bartaraf etishga doir yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

TAHLIL

O‘tish davri jamiyatlarida siyosiy madaniyatning ongli ravishda shakllantirilishi – nafaqat jamiyatning tashvishi, balki uning farovonligi shartidir. Ma’lumki, siyosiy madaniyat stixiyali ravishda shakllanmaydi. U zaruriy bilim va tajribani muntazam o‘zlashtirish davomida shakllanib boradi. Rivojlangan demokratik mamlakatlarda siyosiy ta’lim bilan shug‘ullanuvchi maxsus institutlar ham mavjud. Masalan, Germaniyada

Siyosiy ta’lim markazi (Bundeszentrale für politische Bildung) fuqarolar uchun demokratik qadriyatlar va korrupsiyaga qarshi ma’rifat bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Bunday institutlar OAVlari bilan birgalikda aholining siyosiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Aynan shunday mexanizmlar korrupsiyani jamiyat hayotidan siqib chiqarishga imkon beradi.

Siyosiy madaniyat nazariyasining rivojlanish tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu tushunchaning ilmiy muloqotga kiritilishi nemis faylasuf-ma’rifatparvari I.G.Gerder (1744-1803) nomi bilan bog‘liqligini ta’kidlash lozim. U o‘zining “Insoniyat tarixi falsafasiga oid fikrlar” (1784) asarida ilk bor “siyosiy madaniyat”, “siyosiy madaniyatning yetukligi”, “siyosiy madaniyat egalari” (Barnard, 2023:118-124) kabi so‘z birikmalarini ilmiy muloqotga kiritdi va siyosat bilan madaniyatning o‘zaro ta’siri muammolarini tadqiq etdi.

O‘tgan asrning o‘rtalarida siyosiy madaniyat nazariyasi va siyosiy-madaniy yondashuv amerikalik politologlar tomonidan 1950-yillarning o‘rtalarida siyosiy fanga kiritilgan edi. Shu davrdan buyon ular jahon siyosiy fanida keng rasm bo‘ldi. Bu nazariyani ishlab chiqqan yetakchi olimlar – G.Almond, S.Verba, M.Dyuverje, S.Pay, D.Kavanax kabilardir. Ularning ishlari sotsiologiya, madaniyatshunoslik, antropologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning imkoniyatlaridan siyosiy fanda foydalanishga qaratilgan. Ya’ni siyosiy madaniyat konsepsiyasining vujudga kelishi fanlararo yondashuvning natijasidir.

Siyosiy fanlar nuqtai nazaridan, madaniy jihatlar haqidagi masala siyosatning noinstitutsional jihatlarining ahamiyatini aniqlash bilan bog‘liqdir. Siyosat sub’ektlari faoliyatining asosida ko‘pincha anglanmagan, biroq doimiy ravishda amal qiluvchi barqaror an’anaviy stereotiplar, qoidalar mavjud. Sh.Eyzenshtadt o‘zining “Modernizatsiya nazariyalari: tanqidiy tahlil” nomli asarida qayd etganidek: “Taraqqiyot jarayonida yangi texnologiyalarni har qanday madaniy zaminga ekib bo‘lmaydi: ular G‘arbdan Sharqqa, ilg‘or mamlakatlardan rivojlanayotgan davlatlarga import qilinganida ancha kam samaraga ega bo‘ladi” (Eisenstadt, 1966: 83).

Bu fikrni yanada rivojlantirib, ayniqsa yangi ijtimoiy institutlarga nisbatan qo‘llash mumkin: aksariyat hollarda tashqaridan import qilingan parlamentarizm, import qilingan demokratiya chuqur buzilish, oyoqosti qilinganlik haqida taassurot qoldirishi kuzatiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda madaniy qatlamni o‘rganish u yoki bu ijtimoiy-siyosiy yangiliklar va zamonaviylashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining hal qiluvchi shartiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy fanda siyosiy madaniyat nima ekanligi haqidagi fikrlarda ma’lum tarqoqlikni kuzatish mumkin. Xususan, bir qator mualliflar uning o‘ttizga yaqin ta’riflarini sanab o‘tadilar. Fanda siyosiy madaniyatni sharhlashda ikki yondashuv shakllanganligini kuzatish mumkin. Bir guruh olimlar uni siyosatning sub’ektiv mazmuni bilan aynan bir narsa deb hisoblaydilar, ya’ni siyosatdagi ma’naviy hodisalar va ramzlarning yig‘indisi deb biladilar (G.Almond, S.Verba, D.Divayn, L.Dittmer). Bu olimlarning fikricha, siyosiy madaniyat siyosiy munosabatlarning sub’ektiv jihatlarini o‘zida yaxlit ifoda etuvchi hodisadir.

Boshqa guruh olimlar esa siyosiy madaniyatda me’yoriy talablarning namoyon bo‘lishiga ko‘proq urg‘u beradilar (S.Vayt, J.Pleyno, U.Rozenbaum). Ularning fikricha, siyosiy madaniyat siyosiy fe’l-atvor andozalarining, siyosiy faoliyat usullarining yig‘indisidir. Shu kabi qator olimlar siyosiy madaniyatga shaxsning siyosiy hatti-harakati tarzi, faoliyat stili sifatida ta’rif beradilar (I.Shapiro, P.Sharan). Qaysi yondashuvni tanlamaylik, siyosiy madaniyatning asosiy xususiyati – uning sub’ektivligi ekanligi e’tirof etiladi.

Shu o‘rinda amerikalik olimlar G.Pauell va G.Almond tomonidan siyosiy madaniyatga berilgan klassik ta’rifni keltirish joiz: “Siyosiy madaniyat muayyan siyosiy tizim ishtirokchilarining shaxsiy nuqtai nazarlari, pozitsiyalari va mayllarining majmuasidir. Bu – subyektiv soha bo‘lib, siyosiy xatti-harakatlarning asosini tashkil etadi va ularga muayyan ma’no kasb etadi” (Almond, 1966:50).

Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Gaman-Golutvinaning ta’kidlashicha: “Siyosiy madaniyat insonning hokimiyat haqidagi tasavvurlariga asoslanadi, davlat bilan fuqarolarning o‘zaro ta’sirida, siyosiy faoliyat shakllarida namoyon bo‘ladi” (Gaman-Golutvina, 2013: 155-175).

Bu jihatdan, insonning amaliy harakatlari orqali o‘zining siyosiy idealini izlash jarayonini siyosiy madaniyat o‘zida ifoda etadi. Shunday ekan, siyosiy madaniyat kon’yunktura yoki kayfiyatlarning o‘zgarishlariga tezda moslashmaydi. Siyosiy madaniyat siyosiy fe’l-atvorning eng barqaror jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Siyosiy madaniyatning egalari – siyosiy munosabatlarning sub’ektlaridir: shaxs, ijtimoiy guruhlar, millatlar, jamiyat hamda hokimiyatning institutsional sub’ektlari. Jamiyatning siyosiy madaniyati – asosan ustuvor ijtimoiy guruhlarning siyosiy madaniyatidir. U asosan ushbu guruhning manfaatlarini, ijtimoiy mavqeini va tarixiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida ifoda etadi. Shu bilan birga siyosiy madaniyat tarixiy an’analar, milliy, geografik, madaniy, diniy omillarning ta’sirida shakllanadi.

O‘zbekistonlik olim A.X.Saidov milliy madaniy omillarning siyosiy madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganib, “Siyosiy madaniyat shakllanishida milliy-

ma’naviy omillarning o‘rni beqiyos, ayni damda bu omillar milliy davlatchilik an’analarining qayta tiklanishida ham muhim rol o‘ynaydi” (Saidov, 2015:47) deb ta’kidlaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘zgarishlar, muayyan manfaatlarning birinchi o‘ringa qo‘yilishi barobarida siyosiy madaniyatda ham muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Biroq ular tez va avtomatik ravishda sodir bo‘lmaydi, chunki bunda chuqur ildiz otgan stereotiplar bilan to‘qnashiladi. Shaxs o‘zini qurshab turgan ijtimoiy muhit uchun xos bo‘lgan siyosiy tafakkur stereotiplarini, mayllarni, fe’l-atvor usullarini o‘zlashtiradi.

Har bir jamiyatning siyosiy madaniyati ko‘p sonli, turli-tuman omillarning ta’sirida shakllanadi. Shu sababli siyosiy madaniyatning ko‘p sonli tiplari, turlari, shakllari, modellari farq qilinadi. Siyosiy madaniyatning bu turlari siyosiy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, geografik, ma’naviy, iqtisodiy, g‘oyaviy va boshqa omillar ta’sirida shakllangan.

Siyosiy madaniyatni turkumlashning zamonaviy va keng rasm bo‘lgan ko‘rinishlaridan biri amerikalik siyosatshunos G.Almond tomonidan taklif etilgan. U siyosiy madaniyatning to‘rt turini ajratadi: inglizcha-amerikacha, kontinental-yevropacha, industrlashmagan (avtoritar-patriarxal) va totalitar.

Inglizcha-amerikacha siyosiy madaniyat – dunyoviy va pragmatikdir: bunda siyosat yaxshilik va yovuzlikning murosasiz kurashi qiyofasida emas, balki guruhiy manfaatlarning qonun doirasidagi to‘qnashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu madaniyat gomogenligi, yaxlitligi bilan ajralib turadi: bunda asosiy qadriyatlar va siyosiy o‘yin qoidalari yuzasidan kelishuv mavjudligini kuzatish mumkin.

Kontinental-yevropacha siyosiy madaniyat o‘tish bosqichidagi jamiyatlar uchun xosdir. Siyosatni guruhiy manfaatlar to‘qnashuvi sifatida tushunish bilan bir qatorda, bu yerda uni ideallar to‘qnashuvi, ezgulik va yovuzlikning kurashi sifatida tushunish hali-xanuz o‘z ta’sirini saqlab qolgan. Bu an’ana siyosiy jarayonni “ulug‘ siymo, dohiylarning kurashi” sifatida idrok etishda o‘z ifodasini topadi.

To‘la shakllanmagan siyosiy tizimlarda siyosiy madaniyat turli darajalarga, turli elementlarga bo‘lingan bo‘ladi. Totalitar siyosiy madaniyat esa o‘zining yaxlitligi bilan ajralib turadi, biroq bu yaxlitlik sun’iy xarakterga ega bo‘ladi.

O‘z navbatida, G.Almond va S.Verbaning “Fuqarolik madaniyati” nomli kitobida taklif qilingan tasniflash ham mashhurdir. Angliya, Italiya, GFR, AQSh, Meksika siyosiy tizimlarining amal qilishini tahlil qila turib, ular siyosiy madaniyatning uch “sof” turini ajratadilar: patriarxal, fuqarolik va faol siyosiy madaniyatlar. Bunda mezon sifatida insonlarning siyosiy hatti-harakat tabiati olingan (Almond, 1963:379).

Mualliflarning ta’kidlashlaricha, amaliyotda siyosiy madaniyatning ushbu turlari o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar va u yoki bu belgining ustuvorligi bilan aralash shakllarni tashkil etadilar. Bunday aralash turlardan biri – fuqarolik-demokratik siyosiy madaniyati bo‘lib, u korrupsiyaga qarshi kurash uchun eng qulay madaniy muhitni shakllantiradi. Chunki bu tipdagi madaniyatda fuqarolarning davlat ishlaridagi ishtiroki yuqori darajada bo‘ladi, ular siyosiy qarorlarga ta’sir ko‘rsata oladilar va korrupsiya kabi salbiy hodisalarga murosasiz munosabatda bo‘ladilar.

Jamiyat qaysi idora qilish mexanizmlariga yo‘nalganligiga qarab ham siyosiy madaniyatni turkumlash mumkin. Jamiyat tarixi ikki asosiy idora qiluvchi mexanizmni biladi – bozor va davlat. Siyosiy hayotda u yoki bu mexanizmning ustuvorligiga qarab siyosiy madaniyatning shunga muvofiq turlarini ajratish mumkin. Masalan, bozor siyosiy madaniyati haqida gapirish mumkin. Bunda siyosat insonlar tomonidan biznesning bir turi sifatida idrok qilinadi. Siyosiy jarayonlar oldi-sotdi munosabatlari sifatida tushuniladi, siyosiy faoliyatning oliy maqsadi – foydaga erishish hisoblanadi.

Bozor siyosiy madaniyati bilan bir qatorda etatik (davlatchilik) siyosiy madaniyatini ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday madaniyat egalari siyosiy hayotni uyushtirishda davlatning birinchi darajali rolini tan oladilar. Bu tip raqobatli kurashni cheklash yoki man qilishga yo‘naltirilgandir. Davlatning manfaatlari xususiy manfaatlar ustidan ustuvor deb e’lon qilinadi, uyushganlik va tartib qadrlanadi.

Siyosiy faoliyatda qanday asosiy qadriyat tanlab olinganligiga ko‘ra siyosiy madaniyatning quyidagi uch tipini ajratib ko‘rsatish mumkin: yuksak fuqarolik madaniyati, elitar siyosiy madaniyat va arxaik siyosiy madaniyat. Yuksak fuqarolik madaniyatida asosiy qadriyat – inson, uning ehtiyojlari va manfaatlaridir. Sodir bo‘layotgan hodisalar uchun insonlar o‘zlarini mas’ul deb hisoblaydilar, shu boisdan siyosiy jarayon ishtirokchilarining siyosiy faolligi yuqori bo‘ladi. Turli ko‘rinishdagi korrupsiyaga qarshi kurashda yuksak fuqarolik madaniyati jamiyatni immunlashtirishga, korrupsion faoliyatga nisbatan murosasizlikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Mashhur olim S.Xantingtonning “O‘zgarayotgan jamiyatlarda siyosiy tartib” asarida “Modernizatsiya va korrupsiya” deb nomlangan alohida bob mavjud bo‘lib unda modernizatsiyalashayotgan jamiyatlarda korrupsiya hodisasining o‘rni va tabiati haqida muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan. Xantington korrupsiyani faqatgina salbiy hodisa sifatida emas, balki modernizatsiya jarayonining o‘ziga xos mahsuli sifatida o‘rganadi. Uning fikricha, modernizatsiya

jarayonida an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish davrida siyosiy institutlar rivojlanishidan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar tezroq ro'y beradi. Bu nomutanosiblik siyosiy tizimning barqarorligiga tahdid soladi va korrupsiya uchun sharoit yaratadi. Xantington ta'kidlaydiki, korrupsiya aynan siyosiy institutlashuv darajasi past bo'lgan, tez o'zgarayotgan jamiyatlarda keng tarqaladi.

Xantingtonning eng muhim g'oyalardan biri – korrupsiya va siyosiy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikdir. U siyosiy-huquqiy madaniyatning zaifligi korrupsiyaning keng tarqalishiga olib keladigan muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Korrupsiyani bartaraf etish uchun nafaqat jazo choralarini kuchaytirish, balki jamiyatda ijobiy siyosiy madaniyatni shakllantirish, davlat xizmatchilarining kasbiy axloqini tarbiyalash, jamoatchilik fikrini korrupsiyaga qarshi yo'naltirish kerak. Bu boradagi eng muhim masala – jamoatchilik fikri va uning korrupsiyaga munosabatidir. Agar jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik qaror topsa, unga qarshi kurashning samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xantington o'z asarida paradoksal tezisni ilgari suradi: "Ma'lum bir sharoitlarda, ayniqsa o'tish davrida, korrupsiya siyosiy tizimni barqarorlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin" (Huntington, 1968:59-71). U korrupsiyaning ba'zi "funksional" xususiyatlarini ta'kidlaydi: korrupsiya ijtimoiy guruhlarni siyosiy tizimga integratsiya qilishga yordam berishi, byurokratik to'siqlarni yengib o'tish imkonini berishi, resurslarni taqsimlashni soddalashtirishi mumkin. Biroq, Xantington bu "funksional" xususiyatlar faqat qisqa muddatli va cheklangan bo'lishini, uzoq muddatli istiqbolda korrupsiya jamiyat rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazishini ta'kidlaydi.

Olim rivojlangan demokratik tizimlarda korrupsiya darajasi pastligini ta'kidlaydi, chunki bunday tizimlarda siyosiy institutlar kuchli va barqaror, qonun ustuvorligi ta'minlangan, fuqarolik nazorati mavjud. Jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, davlat xizmatchilarining kasbiy axloqini tarbiyalash, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish – korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali strategiyalaridir. Xantington "fuqarolik ongi" va "jamoatchilik manfaati" kabi tushunchalarni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi immunitetni kuchaytirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Elitar siyosiy madaniyatning asosiy qadriyati – hokimiyat va uning tuzilmalari (davlat, elitalar)dir. Inson siyosiy elita o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish vositasi hisoblanadi. Jamiyatning asosiy qismi siyosiy muammolarni hal qilish jarayonidan chetga surib qo'yiladi, siyosiy faollik darajasi past bo'ladi. Bunday madaniyat sharoitida korrupsiyaning turli shakllari yuzaga kelishi uchun qulay sharoitlar tug'iladi. Masalan, AQShdagi saylov jarayonlarini moliyalashtirish tizimidagi kamchiliklar siyosiy korrupsiya elementlarining paydo bo'lishiga olib kelishi haqida R.Klitgaard o'zining "Korrupsiyani nazorat qilish" asarida to'xtalib o'tgan (Klitgaard, 1988:96).

Arxaik (eskirgan) siyosiy madaniyatning asosiy qadriyati – jamoa manfaatlaridir. Bunda inson o'zini shaxs sifatida idrok etmaydi va o'zini yaxlitning bir bo'lagi deb hisoblaydi, o'zini jamoadan ajratmaydi. Rossiyalik olima N.A.Omelchenkoning ta'kidlashicha: "Bunday tipdagi madaniyat sharoitida shaxslarning manfaatlari o'zaro chirmashib ketishi natijasida mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, nepotizm shaklidagi korrupsiyaning tizimli ko'rinishlari yuzaga keladi" (Omelchenko, 2014:176).

Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyatda muhim vazifalarni bajaradi. Siyosiy madaniyatning vazifalari uning mohiyati va jamiyat siyosiy tizmidagi rolidan kelib chiqadi.

Demokratik jamiyatlarda siyosiy madaniyat – jamiyatning korrupsiyaga qarshi immunitetini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya kabi davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashda erishgan yutuqlarini o'rgangan xalqaro ekspert S.Rouz-Akkerman shunday xulosaga keladi: "Bu mamlakatlarning korrupsiya darajasi pastligi eng avvalo ularda fuqarolarning yuqori siyosiy madaniyatga ega ekanligi, jamoatchilik nazorati tizimi rivojlanganligi, davlatga ishonch va unga nisbatan mas'uliyatli munosabatdadir" (Rose-Ackerman, 2016:217).

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda nafaqat huquqiy mexanizmlarga, balki jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashdagi eng samarali mexanizm – aholining korrupsion harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatidir.

NATIJA

Siyosiy madaniyat nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashda, balki korrupsiyaning oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishi, korrupsion harakatlarning jamiyat tomonidan qoralab turishi orqali uning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Yuqori siyosiy madaniyatga ega jamiyatda korrupsion harakatlar nafaqat qonuniy jazo, balki keskin jamoatchilik qoralovi bilan ham jazolanadi.

Shunday qilib, siyosiy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni va korrupsiyaga qarshi kurashdagi

ahamiyatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagilarni qayd etish mumkin:

Birinchidan, siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, uning rivojlanganlik darajasi siyosiy tizimning sifatini belgilaydi. Siyosiy madaniyatning darajasi davlat va jamoat arboblarining, shuningdek keng xalq ommasining siyosiy-huquqiy bilimdonligi, ularning siyosiy fe'l-atvorida o'z aksini topadi. Demokratik jamiyatda siyosiy madaniyat – fuqarolik jamiyatining uyg'unlikda rivojlanishining garovi hisoblanadi.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash nuqtai nazaridan, siyosiy madaniyat – fuqarolarning korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi, ularda korrupsiya bilan bog'liq muammolarni anglash, baholash va ularga munosabat bildirish imkonini beruvchi muhim vosita sanaladi. Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi ko'p jihatdan jamiyatning siyosiy madaniyati darajasi, fuqarolarning huquqiy savodxonligi va korrupsion harakatlarga munosabati bilan belgilanadi.

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali strategiyasi faqatgina huquqiy-qonunchilik mexanizmlari bilan cheklanib qolmasligi, balki jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Bu chora-tadbirlar siyosiy ong va siyosiy ta'limni rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni joriy etish, fuqarolar ishtirokini faollashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilishi kerak.

To'rtinchidan, jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiya bilan muvaffaqiyatli kurash olib boruvchi mamlakatlarda fuqarolarning siyosiy madaniyati yuqori darajada bo'lib, ular davlat ishi bilan bog'liq masalalarda faol ishtirok etadilar, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Beshinchidan, siyosiy madaniyatni oshirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya tuzish kerak. Bu strategiya korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional, qonunchilik va iqtisodiy mexanizmlarini qo'llash bilan birga olib borilishi lozim. Korrupsiyaga qarshi siyosiy madaniyatni shakllantirish – bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, u bolalarni oiladagi tarbiyadan boshlab, maktab, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim, siyosiy sotsializatsiyaning barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim.

Oltinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish, jumladan, OAV, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va harakatlarning bu boradagi ishtirokini kengaytirish talab etiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari korrupsiyaga qarshi kurashda nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish, balki fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi siyosiy madaniyatni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bir so'z bilan aytganda, siyosiy madaniyatni yuksaltirish – korrupsiyani bartaraf etishning muhim omili hisoblanadi. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish mumkin va bu – korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali mexanizmlaridan biridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyat har qanday demokratik jamiyatning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini, huquqiy ongini va ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi muhim omildir. Siyosiy madaniyatning yuksak darajasi fuqarolarda adolatga intilish, qonunga hurmat, davlat boshqaruv organlariga nisbatan tanqidiy-yaratuvchan munosabat va korrupsiya holatlariga qarshi murosasiz pozitsiyani shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaning ildizlari nafaqat tizimli muammolarga, balki ijtimoiy ongdagi sustkashlik va siyosiy befarqlikka ham borib taqaladi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish orqali samarali amalga oshiriladi. O'zbekiston tajribasi misolida olib borilgan islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, ta'lim va tarbiya tizimida siyosiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar – bu boradagi ijobiy siljishlarning amaliy dalilidir.

Kelgusida siyosiy madaniyatni yanada rivojlantirish, yosh avlod ongiga korrupsiyaga qarshi qadriyatlarni singdirish, jamiyatda ijtimoiy adolat va mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlash orqali korrupsiyaga qarshi barqaror ijtimoiy immunitet shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat korrupsiyaviy jinoyatlarni kamaytiradi, balki barqaror rivojlanish, kuchli fuqarolik jamiyati va ishonchli davlat boshqaruvini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Almond G., Powell B. (1966) Comparative Politics: A Developmental Approach. – Boston: Little, Brown; 1966.
2. Almond G., Verba S. (1963) The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. – Princeton: Princeton University Press,1963.
3. Barnard F.M. (2003) Herder on Nationality, Humanity, and History. – McGill-Queen's University Press, 2003.
4. Балега А. (2020) Вода – права населения Центральной Азии на стабильность и безопасность // Revista Moldovenească de Drept Internaţional şi Relaţii Internaţionale, 2020. – Volume 15. – P. 83-92.

5. Бекмуродов Б. (2021) Роль общественности в борьбе с коррупцией. // Информационно-аналитический журнал «Антикоррупционный дайджест Узбекистана», 2021. – Том 1. – № 1.
6. Биятов Е. (2020) “Коммунальная” коррупция в Казахстане: названы самые частые преступления в сфере ЖКХ. https://ru.sputnik. kz/20200206/ korruptsiya- kazakhstan-zhkh-uscherb-12754710.
7. Гаман-Голутвина О.В. (2013) Политическая культура как ресурс и барьер модернизации // Россия реформирующаяся, 2013. – № 12. – С. 155-175.
8. Eisenstadt S.N. (1966) Modernization: Protest and Change. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966.
9. Huntington S. (1968) Modernization and Corruption // Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1968. – P. 59-71.
10. Идинов А.К. (2011) Проблема борьбы трансформирующихся государств с международной коррупцией в условиях глобализации (на материалах Кыргызской Республики) к.п.н дис. автореф. – Бишкек: Академия МВД Кыргызской Республики, 2011.
11. Искакова Г.К. (2014) Региональная безопасность в Центральной Азии и стратегии России, США и Китая, 2014. – Volume 4. – P. 8-51.
12. Исомиддинов Ю.Ю. (2021) “Коррупциянинг давлат ва жамият бошқаруви барқарорлигига таъсирини камайтириш механизмлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил)” фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси аннотация, 2021.
13. Klitgaard R. (1988) Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press, 1988.
14. Комкова С. (2018) Политические элиты в государствах Центральной Азии: общие черты и коренные различия. // Электронный научный журнал “Архонт”, 2018. – № 2 (5). – С. 95-96.
15. Коррупция в Кыргызской республике и ее предупреждение / сост. Сыдыкова Л.Ч., Сулайманова Н.Н. – Бишкек: КРСУ, 2016.
16. Қирғизбоев М. (2018) Фуқаролик жамияти ва коррупция // Жамият ва бошқарув, 2018. – № 2. – Б. 28-32.
17. Омельченко Н.А. (2014) Этика государственной и муниципальной службы. – Москва: Юрайт, 2014.
18. Matibayev T. (2023) Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotida salbiy ta’sir etuvchi omil // XXI asrda sotsiologiya vaq ijtimoiy ishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 63-69.
19. Мазурин С.Ф. (2013) Влияние коррупции на национальную безопасность государства // Государственная власть и местное самоуправление, 2013. – № 6. – С. 41.
20. Моисеев В.В. (2023) Роль гражданских институтов в формировании нетерпимости коррупции у граждан Узбекистана. // Educational Research in Universal Sciences (ERUS), 2023. – № 8. – Vol. 2. – С. 254.
21. Rose-Ackerman S. (2016) Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
22. Саидов А.Х. (2015) Сиёсий маданият ва миллий ўзликни англаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
23. Tursunov L. Korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvi barqarorligiga ta’sirini kamaytirish mexanizmlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2021.
24. Турсунов А. (2021) Участие институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией. // Информационно-аналитический журнал Антикоррупционный дайджест Узбекистана, 2021. – Том 1. – № 1.
25. Умаров Х.А. (2007) Противодействие коррупции в Республике Таджикистан: Уголовно-правовые и криминологичекие аспекты к.н.ф дис. автореф. – Москва: Академия управления МВД РФ, 2007.
26. Zhao X., Yumin N., Yangze L., Zhigang L., A Atoyev I. (2020) The Integrated Hydropower Sustainability Assessment in Tajikistan: A Case of Rogun Hydropower Plant // Advances in Civil Engineering, 2020. – P. 5.
27. Золотарева С.В. и Мамонова И.В. (2020) Коррупция в Республике Казахстан: Факторы и основные меры борьбы. Социальная интеграция и развитие этнокультур в евразийском пространстве. 1, 9 (май 2020), 132-137.
28. Хитаханов А. (2023) Риски коррупции: пример Центральной Азии.
29. Челпаченко О.А. (2020) Коррупционные проявления как угроза natsиональной безопасности: Новый индекс. – Москва, 2020.

REFERENS

1. Almond G., Powell B. (1966) Comparative Politics: A Developmental Approach. – Boston: Little, Brown; 1966.
2. Almond G., Verba S. (1963) The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. – Princeton: Princeton University Press,1963.
3. Barnard F.M. (2003) Herder on Nationality, Humanity, and History. – McGill-Queen’s University Press, 2003.
4. Balega A. (2020) Voda – prava naseleniya Sentralnoy Azii na stabilnost i bezopasnost // Revista Moldoveneascã de Drept Internaţional şi Relaţii Internaţionale, 2020. – Volume 15. – P. 83-92.
5. Bekmurodov B. (2021) Rol obщestvennosti v borbe s korrupsiey. // Informatsionno-analiticheskiy jurnal «Antikorrupsionniy daydjest Uzbekistana», 2021. – Tom 1. – № 1.
6. Biyatov E. (2020) “Kommunalnaya” korrupsiya v Kazaxstane: nazvani samie chastie prestupleniya v sfere JKX. https://ru.sputnik. kz/20200206/korruptsiya-kazakhstan-zhkh-uscherb-12754710.
7. Gaman-Golutvina O.V. (2013) Politicheskaya kultura kak resurs i barer modernizatsii // Rossiya reformiruyushayasya, 2013. – № 12. – S. 155-175.

8. Eisenstadt S.N. (1966) Modernization: Protest and Change. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966.
9. Huntington S. (1968) Modernization and Corruption // Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1968. – P. 59-71.
10. Idinov A.K. (2011) Problema borbi transformiruyushixsya gosudarstv s mejdunarodnoy korrupsiey v usloviyax globalizatsii (na materialax Kirgizskoy Respubliki) k.p.n dis. avtoref. – Bishkek: Akademiya MVD Kirgizskoy Respubliki, 2011.
11. Iskakova G.K. (2014) Regionalnaya bezopasnost v Sentralnoy Azii i strategii Rossii, SShA i Kitaya, 2014. – Volume 4. – P. 8-51.
12. Isomiddinov Y.Y. (2021) “Korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvi barqarorligiga ta’sirini kamaytirish mexanizmlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya, 2021.
13. Klitgaard R. (1988) Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press, 1988.
14. Komkova S. (2018) Politicheskie eliti v gosudarstvax Sentralnoy Azii: obshie cherti i korennie razlichiya. // Elektronniy nauchniy jurnal “Arxont”, 2018. – № 2 (5). – S. 95-96.
15. Korrupsiya v Kirgizskoy respublike i yee preduprejdenie / sost. Sidikova L.Ch., Sulaymanova N.N. – Bishkek: KRSU, 2016.
16. Qirg‘izboyev M. (2018) Fuqarolik jamiyati va korrupsiya // Jamiyat va boshqaruv, 2018. – № 2. – B. 28-32.
17. Omelchenko N.A. (2014) Etika gosudarstvennoy i munitsipalnoy slujbi. – Moskva: Yurayt, 2014.
18. Matibayev T. (2023) Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotida salbiy ta’sir etuvchi omil // XXI asrda sotsiologiya vaq ijtimoiy ishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 63-69.
19. Mazurin S.F. (2013) Vliyanie korrupsii na natsionalnuyu bezopasnost gosudarstva // Gosudarstvennaya vlast i mestnoe samoupravlenie, 2013. – № 6. – S. 41.
20. Moiseev V.V. (2023) Rol grajdanskix institutov v formirovanii neterpimosti korrupsii u grajdan Uzbekistana. // Educational Research in Universal Sciences (ERUS), 2023. – № 8. – Vol. 2. – S. 254.
21. Rose-Ackerman S. (2016) Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
22. Saidov A.X. (2015) Siyosiy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
23. Tursunov L. (2021) Korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvi barqarorligiga ta’sirini kamaytirish mexanizmlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2021.
24. Tursunov A. Uchastie institutov grajdanskogo obshestva v borbe s korrupsiey. // Informatsionno-analiticheskiy jurnal Antikorrupsionniy daydjest Uzbekistana, 2021. – Tom 1. – № 1.
25. Umarov X.A. (2007) Protivodeystvie korrupsii v Respublike Tadjikistan: Ugolovno-pravovie i kriminologichekie aspekti k.n.f dis. avtoref. – Moskva: Akademiya upravleniya MVD RF, 2007.
26. Zhao X., Yumin N., Yangze L., Zhigang L., A Atoyev I. (2020) The Integrated Hydropower Sustainability Assessment in Tajikistan: A Case of Rogun Hydropower Plant // Advances in Civil Engineering, 2020. – P. 5.
27. Zolotareva S.V. i Mamonova I.V. (2020) Korrupsiya v Respublike Kazaxstan: Faktori i osnovnie meri borbi. Sotsialnaya integratsiya i razvitie etnokultur v yevraziyskom prostranstve. 1, 9 (may 2020), 132-137.
28. Xitaxanov A. (2023) Riski korrupsii: primer Sentralnoy Azii. Chelpachenko O.A. Korrupsionnie proyavleniya kak ugroza natsionalnoy bezopasnosti: Noviy indeks. – Moskva, 2020.
29. Chelpachenko O.A. (2020) Korrupsionnые proyavleniya kak ugroza natsionalnoy bezopasnosti: Noviy indeks. – Moskva, 2020.